

## ZAMONAVIY TA'LIM SHAROITIDA O'QITUVCHINING PEDAGOGIK IMKONIYATI

**Turayev Sunnatillo**

Buxoro davlat Pedagogika instituti o'qituvchisi

**Fayzullayeva Dildora**

Osiyo xalqaro universiteti 1-bosqich magistranti

### ANNOTATSIYA

Maqolada ta'lim jarayonining texnologik ta'minoti, o'qitishning yangicha yondashuvlari, zamonaviy ta'lim, tarbiya texnologiyalaridan foydalanishning konseptual g'oyalari o'rganilgan. Zamonaviy o'qitish texnologiyalari - ijodiy pedagogik fikrlashga asoslanishi, shaxsiyat, ijodiy salohiyat va samarali faoliyatni rivojlantirishning muhim vazifalari tahlil etilgan.

**Kalit so'zlar:** zamonaviy o'qituvchi, kompetentli o'qituvchi, pedagogik texnologiya, innovatsiya, axborot-kommunikatsiya texnologiyasi, ilmi-ijodkorlik.

### АННОТАЦИЯ

В статье исследуется технологическое обеспечение учебного процесса, новые подходы к обучению, концептуальные идеи использования современных образовательных технологий. Современные технологии обучения - основаны на творческом педагогическом мышлении, анализируют важные задачи развития личности, творческого потенциала и эффективной деятельности

**Ключевые слова:** современный педагог, грамотный педагог, педагогические технологии, инновации, информационные и коммуникационные технологии, наука и творчество.

O'zbekiston milliy ta'lim tizimida izchil amalga oshirilayotgan islohotlar va innovatsion jarayonlar tarkibida oliy ta'lim muassasalarining ta'lim yo'nalishlarida o'qitishning yangicha yondashuvlari alohida o'rin tutadi. Talabalarni pedagogik kasbiy faoliyatga tayyorlash bilan shug'ullanadigan ta'lim muassasalari oldida turgan eng muhim talablardan biri bu bo'lajak o'qituvchilarning malakali, kasbiy pedagogik faoliyatga yuqori darajada tayyorligini ta'minlashdir. Dunyo miqyosida kechayotgan globallashuv davrda o'zlashtirilishi talab etiladigan bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalarning, axborot, texnik sakrash va asrning boshqa xususiyatlari bilan bog'liq hayot talablariga moslashtirilishi talab etiladi. Texnik taraqqiyot sari yangi

pedagogik texnologiyalarni o'zlashtirmasdan bugungi ta'limni samarali tashkil etish imkonsiz. Bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy pedagogik faoliyatga tayyorlashning asosiy omillaridan biri bu ularning pedagogik shaxs sifatlarini, xususan pedagogik mahorat, ko'nikma va malakalarni shakllantirish, shuningdek kasbiy faoliyatga psixologik tayyorgarlashni taqozo etadi. Bu masalada asosiy e'tibor kompetentlikka xos bo'lgan fazilatlarni aniqlash zarurati va ushbu fazilatlarni aniqlashni taqozo etadi.

Zamonaviy malakali o'qituvchi tafakkurga asoslangan o'qitish texnologiyalaridan biri bo'lgan konstruktiv o'qitishni qo'llash uchun keng imkoniyatga ega bo'lishi kerak. Bugungi kunda ijodkorlik, tanqidiy fikrlash, mustaqillik, ta'limga individual yondashishni afzal ko'radi. Pedagogik texnologiyalarning asosiy vazifasi - bu ta'lim sohasida mustaqil o'rganishni ta'minlash uchun foydalaniladigan usul va uslublarni samarali tatbiq etish va amalga oshirishdir. Bu shuni anglatadiki, o'qituvchi pedagogik texnologiyalardan mohirona foydalanib, konstruktiv o'qitish o'quvchilar axloqini boyitish, bilimlarni singdirish maqsadlariga erishishi mumkin. O'qituvchi tomonidan ishlab chiqilgan har qanday darsning asosiy maqsadi o'quvchining shaxsiyatini shakllantirish, va axloqiy-ma'naviy mafkurasini boyitishga xizmat qilishi kerak. Kompetent o'qituvchi tomonidan o'quv jarayoni shunday tashkil etilishi kerakki, talaba mustaqil ravishda kuzatuvlarni o'tkazishi, ilmiy faktlarni to'plashi, muammoli vaziyatlarni tahlil qilishi, aqliy fikrlar bilan bajarishi, mustaqil fikrlash qobiliyatini egallash muammolarni hal qilishi amaliy faoliyatni amalga oshirishi va ilmiy bilimlarni shakllantirishi bilan jonli kuzatuv, mavhum fikrlashdan amaliyotgacha bo'lgan birlikni hosil qilishini talab etadi.[8] Pedagogik jarayonda o'qituvchi muamoli vaziyatni oldindan ko'ra bilib shu asosda ilmiy farazni to'g'ri qo'ysagina samarali natijalar erishiladi. Jahon ta'lim tizimida nazariy va amaliy nuqtai nazardan o'qituvchilarni tayyorlash bahs-munozaraga o'rin beruvchi zamonaviy ta'limning dolzarb masalasi bo'lib hisoblanadi. Bu erda ko'plab yo'nalishlarda, shu jumladan individual shaxsiy fazilatlarni rivojlantirish pedagogik jarayonda talabani shaxsini shakllantirish, uzluksiz ta'lim tizimida maxsus tayyorgarlik, didaktik jarayonda imkoniyatlarni rag'batlantirish muhim o'rin tutadi. O'qituvchining kompetentsiyasi ta'limni zamonaviy tashkil etishning asosidir. Bunday bilim va ko'nikmalarga ega bo'lgan o'qituvchilar bir tomonlama o'qitish bilan cheklanib qolmaydilar. Ular o'quvchilarning AKT(Axborot-kommunikatsion texnologiyalar) bilan ishlash qobiliyatini rivojlantiradi va olingan ma'lumotlarni bilimga aylantiradi, uni doimiy ravishda amalda qo'llaydi, muloqot qiladi, o'z bilim va ko'nikmalariga asoslanib o'rganadi, shuningdek o'qitish qobiliyatini shakllantiradi. Ijodkor o'qituvchi ijodiy o'quv platformasini yaratib, bu jarayonda har bir o'quvchining tafakkurini rivojlantirish uchun zamin yaratadi. Tizimli va yaxlit shaklda fanlarni o'qitishda, ma'ruza, seminar va amaliy mashg'ulotlarda, laboratoriya ishlarida

va talabalarning mustaqil va ilmiy-tadqiqot ishlarida foydalanilishiga zamin yaratiladi.[2,4]

Zamonaviy o'qituvchilar uchun axborot texnologiyalari va dasturlaridan pedagogik faoliyatlarida ta'lim yo'nalishlarini shakllantirishi muhim. Talabalarning texnologik imkoniyatlarini rivojlantirish darajasi sifatida o'qitiladigan fanlar va AKT o'rtasidagi fanlararo aloqadan foydalanish kerak. O'qituvchilar o'zlarining pedagogik imkoniyatlarini kengaytirish maqsadida AKT bilan bog'liq quyidagi vazifalar ustida izlanishni olib borishni taqozo etadi:[3]

✓ mavzuni o'qitish jarayonida AKTdan foydalanishning pedagogik maqsadga muvofiqligini va uning didaktik imkoniyatlarini aniqlash;

✓ kompyuterdan ma'lumot olish va qayta ishlash vositasi sifatida foydalanish, alohida kompyuter dasturlarning tuzilishi va xususiyatlarini bevosita qo'llash;

✓ AKT vositalaridan foydalangan holda kichik tadqiqotlar o'tkazish uchun loyihalarni tayyorlash;

✓ uslubiy fanni o'qitishda darslarning har xil turlari va shakllari uchun o'quv qo'llanmalar ishlab chiqish;

✓ axborot manbalari, Internet-resurslar bilan ishlashda va fanni o'qitishning barcha turlari va shakllari uchun mavzuning asosiy bo'limlari bo'yicha didaktik materiallar tayyorlash;

✓ fan doirasida test topshiriqlarini tayyorlash.

Bundan tashqari, fan o'qituvchilari AKT bilan bog'liq quyidagi ixtisoslashgan tizimli kompetensiyalarga ega bo'lishlari kerak:

✓ zamonaviy AKTdan foydalangan holda yangi bilimlarni qabul qilish va amalda qo'llash;

✓ mavzuni o'qitishda tayyor elektron ta'lim manbalaridan foydalana olish, ma'lumotlar bazasini to'plash va Internetda mavjud bo'lgan resurslardan foydalanish;

✓ zamonaviy AKTdan foydalangan holda o'qitishning uslubiy majmuasi elektron resurslarini ishlab chiqish;

✓ elektron ta'lim manbalarini qayta ishlab chiqish va tuzish imkoniyatiga ega bo'lish;

✓ mavzu bo'yicha matnli va grafik ma'lumotlarni tayyorlash va taqdim etishni tashkil eta olishi;

✓ dinamik jadvallarni yaratish va ulardan foydalana olish;

✓ prezentatsiya (taqdimot) dasturlari, slaydlar tuzilmalari, dinamik ma'lumotlar (animatsion effektlar), tovush effektlari, elektron jadvalning joylashuvi, video ma'lumotlarning taqdimoti - mavzuni o'qitishga tayyorgarlik bosqichida ham, dars davomida qanday foydalanishni bilish.

O'qituvchilar kompetentligini uzluksiz jarayon sifatida ko'rish va bir tomondan, umumiy pedagogik bilimlarning doimiy ravishda yangilanib va rivojlanib borishi bilan bog'liq bo'lsa, ikkinchi tomondan, pedagogik faoliyatning ilmiy-ijodiy xarakterining oshishi va pedagogik tizimning tez-tez o'zgarib turishi bilan bog'liq. Hozirgi vaqtda bo'lajak o'qituvchilarning akademik darajasi faqat ularning uzluksiz rivojlanib borishining asosiy bosqichlaridan biri sifatida qabul qilinishi, malaka oshirishning turli yo'llari bilan doimiy ravishda olib borilishi zamonaviy pedagogikaning muhim masalalaridan biri.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)**

1. Abdieva Z.A. Geografiya fanida noan'anaviy dars usullaridan foydalanish. Navoiy., 2003
2. Azizxo'jayeva N.N Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat O'zbekiston Yozuvchilar uyshmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti Tosh. -2006 y
3. Bahromov A., Xolxo'jayeva M. Tabiatshunoslik (3- sinf O'qituvchilar uchun metodik qo'llanma
4. Беспалко В.П. Педагогика ва o'qitishning ilg'or texnologiyalari. M.: Rossiya Mudofaa vazirligi Kasb ta'limi institutining nashriyoti, 1995 y
5. Гузев В.В. Ta'limning samarali texnologiyalari: Integral va TOGIS. Moskva: Maktab texnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti, 2016 yil
6. Селевко Г. К. Axborot-kommunikatsiya vositalariga asoslangan pedagogik texnologiyalar. Moskva: Maktab texnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti, 2005 yil
7. Ta'lim va fan vazirligi. Pedagog kadrlarning malakasini oshirish va kasbiy qayta tayyorlash akademiyasi. Moskva: 2010yil
8. Toshkent- 2008 "Ta'lim" ustuvor milliy loyihasini mintaqalarda amalga oshirish bo'yicha uslubiy tavsiyalar.
9. Yo'ldoshev J.G'. Usmonov S.A. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy qilish. Toshkent, 2008.